

**TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING USTIVORLIGI**

Haitova Sevinchxon G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti, Aniq fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xaitova Shaxnoza G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor jihatlari tahlil qilingan. Unda o'qituvchining darsni samarali tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur va kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishdagi axborot texnologiyalarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, astronomiya fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, mobil ilovalar va interfaol dasturlar yordamida o'quv jarayonini takomillashtirish usullari keltirilgan. Maqolada ilg'or pedagogik va innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning fan va texnika taraqqiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy, dasturlar, innovatsiya, rivojlantirish, kompetensiya, kompetantlik, kasbiy kompetansiya, axborot texnologiyalari.*

Аннотация. *В статье рассматриваются приоритетные направления использования современных информационных технологий в образовательном процессе. Раскрывается роль учителя в организации эффективного урока с применением цифровых ресурсов, а также значение информационных технологий в развитии логического мышления и коммуникативной грамотности учащихся. Особое внимание уделено использованию информационно-коммуникационных технологий при обучении астрономии, внедрению мобильных приложений и интерактивных программ. В работе представлены предложения по повышению интереса учащихся к науке и технике на основе инновационных педагогических подходов.*

Ключевые слова: *современный, программы, инновации, развитие, компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, информационные технологии.*

Annotation. *This article analyzes the priorities of using modern information technologies in the educational process. It highlights the teacher's role in organizing effective lessons through digital resources and emphasizes the importance of information technologies in developing students' logical thinking and communication skills. Special attention is given to the integration of information and communication technologies in teaching astronomy, including the use of mobile applications and interactive programs. The paper provides recommendations for enhancing students' interest in science and technology through innovative pedagogical approaches.*

Key words: *modern, programs, innovation, development, competence, competence, professional competence, information technologies.*

KIRISH

Ta'lim mazmuni o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga

oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligita'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlash-gan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir.

Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

- O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

- Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborot texnologiyalari - bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarini boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir.

Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyaning sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini boshqarish-ning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Astronomiya fanida ham turli axborot texnologiyalari, dasturlar, mobil ilovalarning ahamiyati beqiyosdir.

Aytish kerakki, yoshlarni olam manzarasini idrok etishida, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda, olam strukturasi va undagi fizik jarayonlar haqida zamonaviy tasavvurga ega bo'lib rivojlanishida astronomik bilimlarning ahamiyati juda katta. Chunki, astronomiya fani yoshlar salohiyatini rivojlantirib, koinot haqidagi ilmiy tasavvurlarni hosil qilishda, tabiiy bilimlarni uzluksiz o'rganishga undaydi va eng muhimi hozirda keng tarqalgan xurofot va jaholatli qorong'ilikka qarshi immunitetni kuchaytiradi. Shu ma'noda astronomiyani inson dunyoqarashini yuksaltirishdagi o'rni beqiyos.

Astronomiya fani inson ilmiy dunyoqarashini shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, koinot va unda ro'y beradigan fizik jarayonlar, Quyosh tizimi, Koinot va yulduzlar evolyusiyasi kabi ko'plab hammani qiziqtiradigan bilimlar manbai hisoblanadi. Ayniqsa kosmik texnikalar yutuqlari astronomiya fani rivojiga katta hissa qo'shib Quyosh tizimi va koinot haqidagi tasavvurni kengayishiga va inson bilimlarini boyitishga xizmat qilmoqda. Dunyoda koinotni kuzatishga eng qulay geografik nuqtalaridan biri respublikamizdagi Maydanoq observatoriyasida ham sayyoralar haqida tasavvurni kengayishiga oid ilmiy natijalar olinmoqda.

Samarqand nomli yulduzni kashf qilinishi bunga misol. Shunday bo'lishiga qaramay astronomiya bo'yicha eng muhim va zarur minimum bilimlarni o'quvchi talabalarga etkazish bugungi kunda juda achinarli holatda, ya'ni fanni o'zlashtirishdagi faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion o'quv texnologiyalar metodlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mavjud o'quv metodlari ta'lim ning bugungi maqsadlariga javob bermaydi. Ta'lim jarayoniga astronomiya fani bo'yicha zamonaviy axborot va telekommunikatsiya imkoniyatlaridan foydalanish usullarini tatbiq etish anchayin orqada qolmokda. Bunday holatlar ta'lim jarayonida samarali ta'lim texnologiyalari, astronomiya uchun xos bo'lgan tomonlarni ko'rsata oladigan axborot kompyuter dasturlari va modellaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

XULOSA

Jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar jahon andozasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Bu esa o'qitishni ham mazmun, ham uslub jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishiga olib keladi. Astronomiya kursi mashg'ulotlarini axborot-texnologiyalari va innovatsion ta'lim dasturlari asosida o'qitish orqali o'qituvchi mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib ijodiy yondashgan holda ish faoliyatini olib borishi hamda talabalar texnika taraqqiyoti bo'yicha zaruriy bilimlarni egallashlari uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitidan faol foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Malikova Muhabbat, Sayfullaeva G. I Modern forms of organization of independent work of students as a pedagogical problem// Science and innovation international scientific journal volume 3 issue 1 january 2024 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337| Scientists.
2. Rashidova Nilufar, Sayfullayeva G. I Achieving Transparency in Education// Open Herald: Periodical of Methodical Research Volume 1, Issue 7, November, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: <https://academiaone.org/index.php/6>
3. Malikova Muhabbat, Bozorova Aziza, Sayfullayeva G. I. Relevance of Independent Educational Activities of Students in the Credit-Modular Education System// Open Academia: Journal of Scholarly Research, 1(8), 40-42. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/297>
4. G.I.Sayfullayeva, H.R.Shodiyev Kredit- modul modul tizimida fanlarni integratsion yondashuv asosida o'qitishning afzalliklari// Academic Research in Educational Sciences Multidisciplinary Scientific Journal September, Volume 3 | Issue 9 | 2022.
5. G.I.Sayfullayeva, I.R.Kamolov, O'.K.Sunnatova, SH.G'.Xaitova, O.Avezmurotov Astronomiya o'qitishda axborot texnologiyalari. Darslik. Buxoro 2024.
6. I.R. Kamolov, B.F.Izbosarov, A.R.Sattorov, G.I.Sayfullayeva, SH.G'.Xaitova, M.K.Abduvalayeva Astronomical Data On The Energy Power Of The Sun And Prospects For Using It// Educational Administration: Theory and Practice 2024, 30(6), 2093-2098 ISSN: 2148-2403 <https://kuey.net/>